

## AKUTAGAWA RYUNOSUKENING “SUV OSTI MAMLAKATIDA” QISSASINING TAHLILI

**Jalolova Laylo Shavkatovna**

*Samarqand davlat chet tillar instituti 3 – kurs talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit soʻzlar:** kappa, ijimoiy hayot, modernizatsiya, gʻarbiylashuv, satira, surrealism, madaniyat, sanʼat, Taisho, buddizm.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Akutagawa Ryunosukening “Suv osti mamlakatida” nomli qissasi tahlili konseptual yoritildi. Kappa tarixi, ular bilan bogʻliq qadimiy yapon miqlari asosida faktlar keltirildi. Yozuvchi ushbu qissasida yapon madaniyati va tarixidagi toʻsiqlarni mantiqiy kategorial va yashirin ramziylik bilan ochib berishi tahlil qilindi. Qissada intellektual uygʻonish, siyosiy, madaniy meʼyorlar orasida samimiy hissiyotlarni uchrashi asarni keng qamrovli boʻlishiga sabab boʻlgan hamda asarning psixologik va surrealizm ustunlarining uchrashi Akutagawa ijodiyotining alohida oʻringa egaligini koʻrsatgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

### KIRISH

Badiiy asarlarni tahlil qilish jarayonining bir nechta xususiyatlari mavjud boʻlib, ular miiliylik, psixologik, lingvistik nuqtai nazardan turli maʼnolarni kasb etadi. Milliylik jihati yuzasidan tahlil qilish kengroq borliqni oʻz ichiga oladi hamda bu tilshunoslikda konseptosfera deb ham nomlanadi. Asarni psixologik tahlil qilishda yozuvchining shaxsiyatidagi alohida xususiyati, ijodiy jarayon, muallifning ruhiy olamidagi koʻrinish asar saviyasiga taʼsir oʻtkazadi. Xuddi shu omillarni yapon adabiyotida Akutagawa Ryunosukening “Suvosti mamlakatida” asarida tahlil qilinganda undagi milliy qarashlar asar konseptosferasini tashkil qilganini koʻramiz.

### METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon adabiyotida sharqona adabiyoti konseptosferaga xos boʻlgan xususiyatlarga boy, gʻarb adabiyotida koʻproq insoniy kechinmalar ustunlikka ega. Yapon adabiyotida takrorlanmas yoʻnalishga ega adib Akutagawa Ryunosukening koʻplab asarlari psixologik tamoyilga va satiraga egaligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa uning fantastik “Kappa” yaʼni “Suv osti mamlakatida” asarida fantastika, satira, ijtimoiy hayot va undagi muammolar achchiq kulgi aralash bayon etilgan. Asar janri qissa boʻlib, undagi borliq real hayotga teskariligi bilan hech qaysi adabiyotda uchramaydigan ruhni kashf etadi. “Suv osti mamlakatida” qissasini tahlil qilib oʻrgangan tadqiqotchilar Ho Koon – ki T. ning “Kappa as a Dystopia: A study of Akutagawa’s Anti- utopian Thought” [2;45] nomli tadqiqotida ushbu asarni Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” asari bilan qiyoslagan.

Akutagawa Ryunosukening “Suv osti mamlakatida” qissasida ruhiy yigirma uchinchi raqamli bemor oʻzini suv osti mamlakatiga yaʼni alvasti (yapon tilida suv jinlari “kappa” deb nomlanadi) olamiga borganini shifokorga hikoya qiladi. Qissa yaxlit majoz va mubolagʻa bilan yoʻgʻrilgan. Qissada bemor Xotakayaga yoʻl oladi va yoʻlda bir alvastiga koʻzi tushadi, lekin uni tuta olmaydi. Ushbu qissa

syujetiga o'xshash asar xitoy adabiyotida ham uchraydi. Xitoy hikoyasida baliqchi odam bir kuni qayig'ini daryo bo'ylab maqsadsiz aylanib yuradi. Qanchalik uzoq masofaga ketganligini bilmay, shaftoli bog'iga duch keladi. U tog'ga tunneldan yer yuzidagi jannatga keladi [1;93] Akutagava qissasida suv osti dunyosida barcha narsalar teskari bo'ladi, bunga sabab insonlar real hayotida qonun qoidaga bo'ysunmay risoladagidek yashamaganligini ya'ni teskari yashashini alvastilar o'zining odatiy turmush tarziga aylantirgani tasvirlangan. Jamiyatda teskari yashaydigan odamlarni alvastilarga qiyoslash ma'nosi mavjud. Masalan, bolalar tug'ilishidan oldin otasi ona alvastining qorniga yaqin kelib bolasidan "bu dunyoga kelishni xohlaysanmi"- deb so'raydi, bola "ha" yoki "yo'q istamayman" deb javob berishi ularning odatlaridan biri. Bemor jinlar dunyosida turli kasblarga ega jinlar bilar bilan tanishadi, ular bilan suhbatda bo'lib, siyosiy, adabiy, madaniy mavzularda suhbat quradi. Tokk obrazi orqali ba'zi shoir va yozuvchilarning jahon va yapon adabiyotida o'zini joniga qasd qilishi sababini Akutagava Ryunosuke ularning ijodiy oqimi sababchiligini ko'rsatgan. Yigirma uchinchi raqamli bemor jinlar olamini insoniyat dunyosidan ko'ra mehr oqibatli va pokiza deb hisoblaydi, jinlar olamida insonlarni e'zozlab ularni ishlatishmasligi, insonning qadri yuksakligi, jinlar olamiga qaytishni xohlashini aytishi aynan o'sha davrdagi inson jamiyatida insoniy fazilatlarining oyoq osti bo'lganligi, insonlar o'zligini yo'qotishi illati borligidan darak bergan.. Ger nomli shisha fabrikasi direktori asarda u ziyoli, oilaparvar, ishbilarmon kabi xususiyat bilan tasvirlangan, jinlar olamida ishdan haydalgan ishchilar pishirib yeyilgan buni eshitgan bemor hayratda qoladi. Akutagava ishsizlarni yeyishgan deb asarda ta'riflaganining sababi yapon xalqi mehnatkash xalq bo'lganligi, agar kimda kim mehnat qilmasa o'likdan farqi qolmasligini bildirgan. Bemor suv jinlariga ishdan haydalganlarni go'shtini yeyish taajjubli ekanini aytganda alvasti: *"Кечирасиз ўз қизини фоҳишалик учун сотувчи омма сизнинг мамлакатингиздан эмасми? Ишчиларнинг зўшти овқатга ишлатилишидан оҳ- воҳ қилишингиз элатми"* [3] deb javob beradi jinlar. Ya'ni jamiyatida o'z qizini fohishalik uchun sotuvchilarning o'sha davrda borligi ishchilarning go'shtini yeyishdan ham jirkanchlidir kabi fikri insonlardagi illatni anglatgan. Qissada dinlar haqida so'z borarkan budda, otashparastlik, musulmon dinlari hamda tiriklik dini zamonaviy din deb atalib, suv jinlar tilida "kuemucha" deb nomlangan ya'ni "cha" izm suffiksi, "kuemu" ning o'zagi "kuemal" ya'ni "yashash, kun ko'rish" emas "to'yib ovqatlanish, vino ichish va qovushish"[3] ma'nosini bildiradi. Akutagava tiriklik diniga nisbatan qarashini "kuemucha" so'zi orqali ta'rif berib uni yoqlamasligini satira bilan ko'rsatib bergan. Ruhoniy tomonidan tilga olingan "Hayot daraxti" ga sig'inish ham asarda aytilgan. Yaponiyada g'arbning tasiriga ko'ra turli dinlar paydo bo'lgani va ba'zi insonlar boshqa dinlarga sig'inganligi hamda insonlarga ham sig'inishi yoritilgan. Qissada shoir Tokkning ruhi bilan jinlar ruhiy tomosha uyushtirishadi, suhbatda Matsuo Bashoning "Eski hovuz" haikusi aytiladi va haikuning muallifi kim deb so'ralganda Tokk *"исми эсимдан чиққан"*- deb javob beradi. Akutagava Ryunosuke nima sababdan Bashoning nomini asarda keltirmaganligini va Tokkning esidan chiqqanlik qiyofasida yozishining sababi mazkur haikuni butun omma bilishida va mashhurligida.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Akutagava Ryunosukening "Kappa" (Suv osti mamlakatida) asaridagi "kappa" aslida yapon tarixida, miflarida turlicha talqin etilgan. Kappani tarjima qilganda jin, alvasti tushuniladi. Yapon miflariga ko'ra kappalar – haqiqat, sadoqat simvoli hisoblanadi. Yapon folklor janrlarida uchraydigan kappa daryolarda ehtiyotsiz bolalarni, otlarni, qoramollarni suvga cho'ktirish orqali o'limga olib boradi. Kappa so'zi kavataro "daryo bolasi" yoki "suiko" "suv yo'lbarisi" degan ma'noni anglatadi [4]. Kappa qip - qizil, qurbaqaga o'xshash (qissada Bagg ham qurbaqaga o'xshatilgan), ammo, o'tkir uchli tumshuqli, boshida oval shaklidagi likopchali boshga ega deb ta'riflanadi. "Suyko-koryaku" asarida ham kappalar xuddi shunday ta'riflangan. Xalq ertaklarida kappa sumo sportini yoqtirishi va mag'lub bo'lgan odamni suvda cho'ktirishi, bolalarni suvda ehtiyotkorligini ta'minlashi uchun aytib berilgan. Kappalar afsonalarga ko'ra suv xudosi timsolida keltirilgan. Yapon xalqi tabiatdan hodisalaridan qo'rqib, talofatlarni kami yoki yokai kabi aniq taxmin qilishga intilgan [6].

Kappalar Edo davrida afsona va miflarda tez-tez uchrab turgan lekin uni qachon paydo bo'lganligi

noma'lum, suv jinlari inson ruhini o'z ichiga olgan, yapon miqlari buni "shirikodama" deb nomlashgan [7]. Insonlar bodringga o'z ismlarini qirib yozib ularni suvga tashlashgan bunga sabab, suvda jinlar bizga tegmasin degan maqsadda ushbu amaliyotni qo'llashgan. Suv jinlari ququqlikda ham uchrashadi mumkin, ularning ham Kitsune (tulki) [9] kabi zaif jihatlari bo'lib, ququqlikda uchrasa, unga chuqur tazim qilish kerak bo'ladi ular xushmuomalalikni yoqtirishadi, kappalar kishi harakatini takrorlaydi unga tazim qilinsa u ham tazim qiladi va boshidagi suyuqlik to'kiladi shunda ular ilojisiz va kuchsiz qolishadi.

Afsonaga ko'ra "hayot daraxti" xudosi kappaning urg'ochisini yaratadi[2;46]. Akutagava ushbu qissasini Taysho davrining oxirlarida imperalistik kuchayishlar siljiganda nashr etgan. "Suv osti mamlakatida" qissasini allegoriya san'ati bilan yozilgan degan taxminlardan o'laroq bu asar Akutagavaning ichki olam qiyinchiliklarini ochib berganligi aytiladi

## XULOSA

Akutagava Ryunosukening "Suv osti mamlakatida" qissasi olimlar tomonidan eng mukammal va obrazli asar deb tanlangan. Yaponiyaning siyosiy-huquqiy davlatligini bildiradi. Partiyalar nomlari va shiorlari, siyosiy gazeta, jurnallar, adabiy uyushmalarning suv osti dunyosida mavjudligi kappa davlatning siyosiy tizmi belgisidir. Jamiyatda paydo bo'lgan kapitalizm va bir dinda boshqa dinga o'tish, urflarni o'zgarishi va insonlarning bunga qanday qarashi ochiq muhokama qilingan, ijodkorlarning ijodiy oqimi ular qaysi yozuvchilarga nisbatan ilhomlanib badiiy san'atni yaratishi an'anasi va asosan qissada g'arb shoir va faylasuflarning nomi keltirilgani yapon adabiyotiga g'arb adabiyotining birikishini ma'no mazmuniy tomondan o'xshashlik paydo bo'lishiga taxmin qilingan. Yaponiya milliy dunyoqarashini tashqi omillar sabab o'zgarmaslik ustunligiga ega bo'lishi asarda yoqlangan. "Suv osti mamlakatida" qissasida yuqoridagi hodisalarning ta'siri va oqibati madaniyatga xos bo'lgan xususiyatlar va shuni aksi bo'lgan voqelik ma'lum kategoriya bilan mukammal tasvirlangan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. For a discussion of this Chinese story as utopia, "Utopianism: a unique theme in Western literature. Short survey on Chinese utopianism", Tamkang Review, vol. XIII. no 1; 93-5 (Fall 1982)
2. Koon H.T. Kappa as a Dystopia: A study of Akutagawa's Anti-utopian Thought.; p 18.
3. Oydin Niso. Akutagawa Ryunoske. Suvosti mamlakatida. Qissa. (rus tilidan tarjima) Manba: "Jahon adabiyoti" jurnali. 2019.
4. The Japanese Kappa/Overview, History, Variations. 2023. <https://study.com>
5. Qozoqboy Yo'ldoshev. Mohiyatni anglatish yo'li & Qozoqboy Yo'doshev "Mening kutubxonam" ko'rsatuvida. "Sharq yulduzi" jurnali sayti, 2017.
6. Kappa.: The Terror of Japan's Rivers. 2022. <https://nippon.com/en/japan-topics/b02505/>
7. <https://sakura.co/blog/the-japanese-kappa-mischevious-water-creature>
8. [https://www.en.wikipedia.org/wiki/Kappa\\_\(novella\)](https://www.en.wikipedia.org/wiki/Kappa_(novella))
9. <https://ru.m.wikipedia.org/Kitsune>.